



Odil MUSAYEV,
Renessans ta'lim universiteti professori, falsafa fanlari doktori
Nodira SHAPSANOVA,
Renessans ta'lim universiteti tadqiqotchisi

Renessans ta'lim universiteti professori, falsafa fanlari doktori T.Jo'rayev taqrizi asosida

OILALARDAGI MA'NAVY QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Аннотация

Mazkur maqolada oilalardagi ma'naviy qadriyatlar transformatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari har tomonlama taxlil etilgan. Oila, jamiyatning asosiy va muhim birligi sifatida, o'zining a'zolari orasida ijtimoiy va ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, oiladagi qadriyatlar o'zgarishi jamiyatdagi umumiy transformatsiyalar bilan bog'liqdir.

Kalit so'zlar: Globallashuv, jamiyat, ahloq, oila, qadriyat, ma'naviy qadriyat, tenglik, gender tenglik, transformatsiya, oilaviy qadriyatlar.

OSOBNOSTI TRANSFORMATSII DUXOVNYX KACHESTV V SEMYE

Аннотация

В данной статье всестороннее анализируются особенности трансформации духовных ценностей в семье. Семья как основная и важная ячейка общества играет важную роль в формировании социальных и духовных ценностей у ее членов. Также смена ценностей в семье связана с общими преобразованиями в обществе.

Ключевые слова: Глобализация, общество, мораль, семья, ценности, духовные ценности, равенство, гендерное равенство, трансформация, семейные ценности.

FEATURES OF THE TRANSFORMATION OF SPIRITUAL QUALITIES IN THE FAMILY

Annotation

This article comprehensively analyzes the specific features of the transformation of spiritual values in families. The family, as the main and important unit of society, plays an important role in the formation of social and spiritual values among its members. Also, the change in values in the family is associated with general transformations in society.

Key words: Globalization, society, morals, seeds, values, spiritual values, greed, gender inequality, transformation, family values.

Kirish. Oila muhitida shakllanadigan ma'naviy qadriyatlar transformatsiyasi – bu oiladagi qadriyatlar, an'analar va etik normalarning vaqt o'tishi bilan qanday o'zgarishi va rivojlanishini o'rganishga doir mavzu hisoblanadi. Oila, jamiyatning asosiy va muhim birligi sifatida, o'zining a'zolari orasida ijtimoiy va ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, o'tgan davrlardan bugungacha oiladagi qadriyatlar, gender tengligini, axloqiy va ma'naviy me'yorlarni qabul qilishda muhim omil bo'lib kelgan.

Ma'naviy qadriyatlar – bu insonlar orasidagi axloqiy normalar, etik me'yorlar, an'analar va hayotga bo'lgan umumiy munosabatlarni o'zida ifodalayotgan tushuncha. Oila bu qadriyatlarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu qadriyatlar oila a'zolarining turmush tarzini, ijtimoiy munosabatlarni va axloqiy tamoyillarini belgilaydi. Oiladagi qadriyatlar o'zgarishi jamiyatdagi umumiy transformatsiyalar bilan bog'liqdir. Har bir jamiyatning o'zgarishining xossalari va aniq bir nuqtalardan o'tishi oiladagi axloqiy qadriyatlarning yangi shaklda shakllanishini ta'minlaydi.

Qadimgi jamiyatlarda oiladagi rollar ancha aniq bo'lgan — erkak oilaboshi bo'lib, ishdan qaytgach oilaviy ehtiyojlarni ta'minlashga mas'ul bo'lgan, ayol esa uy ishlari va bolalarni tarbiya qilish bilan shug'ullangan. Zamonaviy jamiyatda bu rollar o'zgardi. Hozirda ayollar ko'p ishlab, o'zini mustaqil iqtisodiy holatga ega qilishmoqda, erkaklar esa oiladagi ishlarda, masalan, bolalarni tarbiyalash va uyni yanada birgalikda boshqarishda faol ishtirok etmoqda.

O'tgan asrning 80-90-yillarida oiladagi aloqa asosan shaxsiy muloqotga asoslangan bo'lsa, bugungi kunda internet va ijtimoiy tarmoqlar oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Oila a'zolari internetda o'zaro aloqa qilish, fikr almashish va videokonferensiyalar o'tkazish orqali bir-birlari bilan yuqin munosabatda bo'lishmoqda. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlardagi muhokamalar oila a'zolarining qadriyatlariga, xohishlariga va dunyoqarashlariga ta'sir qilishi mumkin.

Ba'zi jamiyatlarda, masalan, Markaziy Osiyo, Yaponiya va Koreyada kabi mamlakatlarda an'anaviy oila modellari hali ham ustun bo'lib, bu yerda kattalarga hurmat, maslahat berish va ijtimoiy ta'lim muhim qadriyatlariga kiradi. Yoshlar an'anaviy qadriyatlar, oilaviy muloqot va kattalarga bo'lgan hurmatni saqlab qolishga harakat qilishmoqda. Lekin, zamonaviy jamiyatda, ayniqsa, shaxsiy mustaqillikka intilish va globalizatsiya ta'siri bilan, yoshlar ko'proq mustaqil qarorlar qabul qilishga e'tibor qaratib boshladilar.

An'anaviy oilada ayol va erkak oilaviy munosabatlarda hamkorlik qilishadi. Har birining o'ziga xos rollari bor: ayol bolalarni tarbiyalash, oilaviy ishlarni boshqarishda, erkak esa oila uchun mablag' ishlab topish va oila a'zolarini qo'llab-quvvatlashda mas'ul bo'ladi.

“Har qanday inson uchun muhim va muqaddas qadriyat — bu uning oilasidir. Sog'lom va mustahkam oila — davlat tayanchi va jamiyatning asosiy bo'g'inidir. Kattaga hurmat, kichikka izzat, odamiylik, mehr-oqibat, ona Vatanga muhabbat va sadoqat kabi oljanob fazilatlar avvalo oilada qaror topadi”[1], — dedi davlat rahbari.

U bugungi globallashuv zamonida oila institutini har tomonlama himoya qilish, qo'llab-quvvatlash va mustahkamlash uchun munosib shart-sharoitlar yaratib berish zarurati tobora kuchayib borayotganligini ta'kidlaydi.

“Shuningdek, Konstitutsiyamizga „Ota-onalar o'z farzandlari voyaga yetguniga qadar ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lig'i, to'laqonli va barkamol rivojlanishi to'g'risida g'amxo'rlik qilish huquqiga ega va bunga majburdir“, degan qoidani kiritish yosh avlod taqdiri uchun mas'uliyatni yanada oshirishga xizmat qiladi”[2], — deya ta'kidlaydi Shavkat Mirziyoyev.

Kattalarga hurmat ko'rsatish, ularning tajribasidan foydalanish va oiladagi ijtimoiy hurmat o'rni katta ahamiyatga ega. Qadimdan ham ayollar va erkaklar kattalarga hurmat

ko'rsatishni, ularning maslahatlariga amal qilishni muhim qadriyat deb bilishgan.

Globallashuv sharoitida oiladagi qadriyatlar jamiyatdagi ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlarga, ya'ni shu jumladan urbanizatsiya, globalizatsiya, iqtisodiy taraqqiyot va texnologik yangilanishlarga bog'liq tarzda transformatsiyaga uchraydi. Masalan, an'anaviy oila modelidan, ya'ni jamoaviylik asosidagi oiladan, individualistik yoki tenglik asosidagi oila modellari o'tish kuzatilmoqda. Shu bilan birga bugungi kunda ommaviy axborot vositalari, internet va ijtimoiy tarmoqlar oila a'zolarining munosabatlariga, ularning qadriyatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, animatorlar, bloggerlar va videoroliklar oila a'zolarining o'z qadriyatlarini qayta shakllantirishga, novatorlik va yangi axloqiy prinsiplarni jamiyatga yetkazishga yordam bermokda.

Bizga ma'lumki, oiladagi qadriyatlar va an'analarni shakllantirishda davlat siyosati va qonunlar ham muhim omil hisoblanadi. Misol uchun, gender tenglikka oid siyosatlar, ajrashish va nikoh munosabatlariga oid qarashlar keskin o'zgarib bormoqda. Jumladan, Respublikada keyingi yillarda ajralishlar soni sezilarli ko'paygan. Misol uchun, 2021-yilda 39,3 ming nikohdan ajralish qayd etilgan bo'lsa, bu raqam 2022-yilda 48,7 mingni, 2023-yilda esa 49,2 mingni tashkil qilgan[3]. 2024-yilning birinchi yarmida O'zbekiston bo'yicha nikohdan ajralishlar soni jami 25 400 tani tashkil etgan. Xususan, shahar joylarida 15,3 mingta, qishloq joylarida 10,1 mingta oila ajrashgan. O'tgan 2022-yilning dastlabki 6 oyida esa 24 572 ta nikohdan ajralish holatlari qayd etilib, eng ko'p ajralishlar Toshkent shahri (2 950 ta) va Samarqand viloyatida (2 569 ta) bo'lgan. Mamlakatda 2022-yilda jami 48 734 ta nikohdan ajralish holatlari yuz bergan[4].

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, oiladagi qadriyatlar va munosabatlar transformatsiyasi ayrim hollarda ajrashish va oilaviy monotonlikning ortishiga olib kelishi mumkin. Bu, ayniqsa, gender rollarining uzilishini, yangi an'analarni qabul qilishga kirishgan odamlar o'rtasida qiyinchiliklar paydo bo'lishini ham ko'rsatadi.

Jamiyatimizda sodir bo'layotgan texnologik o'zgarishlar, internet va ijtimoiy tarmoqlar oila a'zolarining axloqiy qadriyatlariga ham ta'sir qilmoqda. Ba'zi hollarda bu transformatsiya axloqiy senzuraning zaiflashtirib, xulq-atvor va munosabatlarda noaniqliklarga olib kelishi mumkin. Bu ijtimoiy normalarning parchalanishiga, jamiyatdagi sog'lom axloqiy asoslarning yo'qolishiga sabab bo'ladi. Ushbu jarayonlar mamlakatimizda yosh oilalarning ajralishlari dinamikasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda, deyish mumkin.

Biroq, ushbu omillar oila a'zolari orasidagi tenglik prinsiplarining rivojlanishi va gender rollarining o'zgarishi ijtimoiy kamsitishni kamaytirish va gender muammolarini hal qilishga yordam berishi mumkin. Oila muhitida shakllanadigan ma'naviy qadriyatlar, transformatsiya jarayonini boshdan kechirish bilan birga, jamiyatning tartib, ahloq, va madaniyat konsepsiyasiga ta'sir etadi. Bu transformatsiyaning davomiyligi ko'p jihatdan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillarga bog'liq. Oiladagi ma'naviy qadriyatlar jamiyatning bugungi va kelajakdagi tartibini shakllantirishda muhim rol o'ynashi mumkin.

Oila muhitidagi ma'naviy qadriyatlarning transformatsiyasi, jamiyatdagi ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liqdir. Bu, ayniqsa, urbanizatsiya, iqtisodiy taraqqiyot, sotsializatsiya, globalizatsiya va texnologik yangilanishlar orqali kuzatiladi. Misol uchun, ko'plab ayollar ishlashga chiqish va mustaqil iqtisodiy holatga ega bo'lish imkonini qo'lga kiritmoqda. Bu oiladagi gender rollariga ham o'zgarishlar kiritmoqda va oila a'zolari orasidagi munosabatlar yangi shaklga kirmoqda.

Zamonaviy tadqiqotlar va bilimlar oiladagi ma'naviy qadriyatlarning transformatsiyasini ilmiy asosda o'rganishga yordam bermokda. Oiladagi a'zolarining psixologiyasi va eng asosiy axloqiy prinsiplar asosidagi munosabatlar ularning hayotga bo'lgan munosabatini kuchaytirishi va ijtimoiy intizomni oshirishi mumkin. Oiladagi o'zgarishlar, farzandlar tarbiyasidagi yangi yondashuvlar jamiyatning umumiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Yangi qadriyatlar va axloqiy me'yorlarning ushbu

rivojlanishga olib kelishi, kerakli ish va turmush tarziga erishish uchun kerakli shart-sharoitlarni yaratishga yordam beradi.

Oila a'zolarining qadriyatlari bugungi avlodda yanada tez o'zgarishlarga uchramoqda. Yangi avlodlar, kimdir individualizmga intilayotgan bo'lsa, boshqalar oilaviy qadriyatlarni va an'analarni saqlab qolishga harakat qilmoqda. Bu farqlar oilaviy munosabatlar va o'zaro tushunishda muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Yangi avlodda raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va globalizatsiya natijasida oilada axloqiy me'yorlar ko'p jihatdan o'zgargan. Bu esa, kattalar va yoshlar o'rtasida axloqiy qadriyatlar bo'yicha tushunish muammolarini keltirib chiqargan. Yoshlar ko'p hollarda o'ziga yangicha dunyoqarash bilan qarashadi, kattalar esa an'anaviy qadriyatlarga ko'proq e'tibor beradi. Zamonaviy texnologiyalar, masalan, smartfonlar va internet, oila a'zolarining o'zaro aloqa qilish usullariga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Bugungi kunda oila a'zolarining bir-biri bilan suhbatlashish tarzi, ularning nafsi va odamgo'y tushunchasini qabul qilishda o'zgarishlar bo'lmoqda. Buning natijasida, a'zolarining bir-biri bilan mavjud bo'lish davomiyligi va hissiy aloqadagi yordam ko'rsatish darajasi o'zgarishi mumkin.

Oiladagi qadriyatlar transformatsiyasini davlat siyosati va qonunlar ham mustahkamlaydi. Gender tengligi, ayollar huquqlari, bolalar huquqlari kabi masalalarga davlatning e'tibori oiladagi munosabatlarga ta'sir qilishi mumkin. Masalan, ajrashish yoki nikohga doir yangi qonunlar, oiladagi munosibatlarning yangi shakllarini qo'llab-quvvatlashi mumkin.

Jadidchilik harakatining ulug' namoyondasi Fitrat o'zining "Oila" asarida: "Millat taqdiri mana shu millat vakillari yashagan oilaning holatiga bog'liqdir... Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo'ladi"[5], – deb yozadi. Bu jarayonda davlat har bir oilani ijtimoiy himoyalashi, moddiy jihatdan ta'minlashi, tinch va farovon hayot kechirishi uchun yetarli sharoitlarga ega bo'lishidan manfaatdor bo'lib, ularning farovonligini kafolatlashiga ko'maklashayotgani muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasida "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega"[6] deb qayd etilgan. Konstitutsiyaning mazkur normasi asosida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi "Oila kodeksi"ning 2-moddasi talabiga ko'ra, "oilaviy munosabatlarda ayol va erkak teng huquqli bo'lib, oilaviy munosabatlarni tartibga solish erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlanib tuzgan ittifoqi, er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarning o'zaro kelishuv yo'li bilan hal qilinishi, oilada bolalar tarbiyasi, ularning farovon hayot kechirishi va kamoloti haqida g'amxo'rlik qilish, voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz oila a'zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish ustunligi tamoyillari asosida amalga oshiriladi"[7].

Dunyo miqyosida global muammolardan biri bo'lib kelayotgan oilaviy zo'ravonlik masalasiga xalqaro hamjamiyatlar tomonidan berilayotgan yuksak e'tiborga qaramasdan, oilalarda bunday salbiy holatlarning kamaymayotgani mazkur holatning alohida tadqiq etiladigan dolzarb muammolar sirasida qolib kelayotganligi va uni ilmiy tadqiq etishni faollashtirish zaruratini belgilaydi.

Oilaviy zo'ravonlikning mavjudligi muammo sifatida oilaning iqtisodiy, ma'naviy jihatlari bilangina belgilanmaydi. Shuni alohida qayd etish lozimki, keyingi yillarda bizning mamlakatimizda bu muammo tor oilaviy doiradan chiqib, davlat miqyosida hal etiladigan muhim sotsiologik jarayon sifatida tadqiq etilmoqda. Shu kunga qadar mavjud bo'lgan bu muammoni hal etishga xalaqit beradigan omillar, birinchi navbatda milliy mentalitet xususiyatlari bilan bog'liqdir.

Oiladagi gender rollarining transformatsiyasi gender tengligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu ayollarning faolligi va iqtisodiy mustaqilligini oshiradi, erkaklarning oiladagi rollarini qayta ko'rib chiqishga olib keladi. YA'ni, ayollar ishlashga chiqish va erkaklar oiladagi maslahatlar va tarbiyada ham faol bo'lishga harakat qilishadi. Yangicha axloqiy qadriyatlar oila a'zolarining munosabatlarini mustahkamlaydi, ijtimoiy taraqqiyotga yordam beradi. Masalan, bir-birini tushunish, hurmat

qilish va yordam berish qadriyatlarini oila a'zolari o'rtasida ijobiy muhit yaratadi.

Xulosa. Oiladagi ma'naviy qadriyatlar transformatsiyasi jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy o'sishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, har bir davlat va jamiyatning unikal xususiyatlaridan kelib chiqadi. Bu o'zgarishlar oila a'zolarining o'zaro munosabatlari, qadriyatlar va axloqiy normalarga ta'sir ko'rsatadi. Yangi qadriyatlarni qabul qilish va ularni amaliyotga tatbiq etish, ayni vaqtda, oilaviy munosabatlar, ijtimoiy muhit va jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega. Oiladagi ma'naviy qadriyatlar transformatsiyasi jamiyatning umumiy taraqqiyoti va rivojlanishining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u o'zgarishlarni qabul qilishga, yangi axloqiy va ijtimoiy normalarga moslashishga imkon beradi. Oila a'zolarining qadriyatlarini qayta ko'rib chiqishlari jamiyatda yangi qarorlar va dunyoqarashlar shakllanishiga yordam beradi, bu esa jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Oila muhitida shakllanadigan ma'naviy qadriyatlar transformatsiyasi mavzusiga oid ijobiy jihatlari

1. Oilada ma'naviy qadriyatlar transformatsiyalashuvi natijasida ota va o'g'il, ona va qiz o'rtasidagi munosabatlarda anchayin ochiqlik va dialoglar shakllandi. Natijada o'g'il otaga, qiz onaga o'z muammolarini ayta olish an'analari rivojlanmoqda.

2. Ota-onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlarda farzandlarning fikrlari va manfaatlarini o'z ifodasini topish jarayonlari ancha kengayib bormoqda.

3. Oiladagi ma'naviy qadriyatlar transformatsiyalashuvi aksariyat oilalarda farzandlarning mustaqil shaxs sifatida shakllanish imkoniyatini vujudga keltirmoqda.

4. Oilalarda "feodal ota" va "mehrbon ona" tamoyillari barham topmoqda. YA'ni ularning kasb tanlashi, turmush qurishi, mustaqil fikrini ifodalashi.

5. Oilalardagi gender tenglik masalalaridagi muammolar o'z yechimini topmoqda.

6. Xotin-qizlarning Oliy ta'lim muassalarida ta'lim olishi, ilmiy izlanishlar olib borishiga keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Oilaviy qadriyatlar transformatsiyasining salbiy ko'rinishlari

1. Oilada ota o'rnining pasayib ketishi natijasida oilaviy birlikka putur yetmoqda. YA'ni egoizm kuchaymoqda.

2. Yoshlar o'rtasida "Ommaviy madaniyat"ga hayrihoxlik kuchaymoqda.

3. Oilada milliy qadriyatlarning yemirilishi yoshlarning ta'lim olishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. YA'ni ota-onalar majlisiga asosan ayollarning borishi, turli xil pul yig'implari ko'payishiga, o'qituvchilar bilan yosh bolalar oldida janjallashish, urishish holatlarining paydo bo'lishiga, bu esa bolaning ta'lim-tarbiya olishiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

4. Yosh oilalarning ajralib ketishi jarayoni oldingilarga nisbatan bir necha bor oshib ketishiga sabab bo'lmoqda.

5. Oilada ota va o'g'il, ona va qiz o'rtasidagi o'zaro hurmatga asoslangan qadriyatlarimiz inqirozga yuz tutmoqda. Oila a'zolari o'rtasida o'zaro janjallar, nizolar, mol-mulk talashishlar ochiq ko'rinishga o'tmoqda. Masalan, ota-onalar o'z farzandlaridan aliment olmoqdalar, farzanlar esa ota-onalarini qorovsiz qoldirmoqda, qariyalar uylariga yubormoqda, xatto ularga tan jarohati yetkazishgacha borishmoqda.

6. Bir jinsli nikohlar, Geyparadlar o'tkazish, transgenderlikni targ'ib qilish, ehtonaziya qilishga rozilik, LGBT va boshqalarni qonuniylashtirish lozimligiga urg'u bermoqda. Bizga ma'lumki, demokratiya ham chegara mavjud. Lekin bugungi g'arb chegarasizlikka intilmoqda va boshqalarni ham shunga chorlamoqda yoki turli xil yo'llar bilan (masalan, qarz berish uchun majburiyatlar yuklash, xalqaro reyting ko'rsatkichlarida oxirgi o'rinlarga qo'yish, nodemokratik davlat deb atash kabi) majburlamoqda.

Bugungi biz taraqqiy etgan G'arb deb ataladigan makonda bir jinsli nikohlarni qonunlashtirish jarayonlari ommalashtirilmoqda. Bizga ma'lumki, xatto xayvonot olamida ham bir xil jinslar o'rtasida jinsiy aloqa deyarli uchramaydi. Nega eng aqlli bo'lgan inson tabiat va jamiyat qonunlariga zid ish qilmoqda? Bunga sabab nima? Bizningcha sababni erkak va ayol o'rtasidagi munosabatlarning buzilishidan izlash lozim. Chunki, biz keyingi davrlarda tabiat qonunlariga zid ravishda erkak va ayolni hamma narsada bir xil bo'lishligini ta'minlashga intilmoqdamiz. YA'ni, huquqda tenglik, erkinlikda tenglik, oilada tenglik, mehnat qilishda tenglik, bola boqishda tenglik, pul topishda tenglik kabi bir xil standartlarda ko'rishga urinmoqdamiz. Bugungi kunda ayol keragidan ortiq erkaklardan o'z ulushini talab qilishga odatlanmoqda, erkak esa unga imkoniyatidan ortiq vazifalarni yuklamoqda. Natijada jinslar o'rtasida ko'zga ko'rinmas "nafarat" shakllanmoqda. Bir jinsli nikohlarni o'sha "nafarat"ning amaliy ifodasi deyish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Prezident oila ayol va erkakning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligi asosida shakllanishini Konstitutsiyada mustahkamlashni taklif etdi. Jamiyat gazetasi 2022-yil 20-iyun. <https://www.gazeta.uz/uz/2022/06/20/family/>
2. Prezident oila ayol va erkakning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligi asosida shakllanishini Konstitutsiyada mustahkamlashni taklif etdi. Jamiyat gazetasi 2022-yil 20-iyun. <https://www.gazeta.uz/uz/2022/06/20/family/>
3. O'zbekistonda nikohlar kamayib, ajralishlar ko'paydi — statistika. <https://kun.uz/kr/news/2024/02/09/ozbekistonda-nikohlar-kamayib-ajralishlar-kopaydi-statistika>
4. O'zbekistonda nikohdan ajralishlar soni eng ko'p hudud ma'lum qilindi. <https://daryo.uz/k/2023/08/08/ozbekistonda-nikohdan-ajralishlar-soni-eng-kop-hudud-malum-qilindi>
5. Abdurauf Fitrat. Oila.-Toshkent: Ma'naviyat, 1998. B.8.
6. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T. 2023. 63-moddasi.
7. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. <https://lex.uz/acts/104720>